Sana: “__” _____ 201__-yil. Sinflar: 8-“_____”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Kirish

DARSNING MAQSADI:

a) ta’limiy: o’quvchilarga haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) tayanch kompetensiya(lar): TK1, TK2;

b) fanga oid kompetensiya(lar): FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	**Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)**	**Ajratiladigan vaqt (reglament)**
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

1-mashq. *1-topshiriq.* Hikoyatni o‘qing va undan qanday xulosa chiqarilayotganligini ayting.

MUKOFOT VA JAZO

Qadimda podshohlardan biri davlat ishlarini boshqarayotgan paytlarida o‘g‘lini yonida olib o‘tirar ekan. Bir kuni podshoh kechasi ko‘rgan tushini munajjimga so‘zlab berib, ta’birini so‘rabdi. Munajjim bilag‘on bo‘lsa-da, dilozor, dag‘al so‘zli ekan. U tushga

hasanboy.uz

shunday ta’bir beribdi: — Shohim, sizning barcha yor-u do‘stlaringiz o‘lib ketadi, siz yolg‘iz qolib, ko‘p azob chekasiz. G‘azablangan podshoh munajjimni jazolashni buyuribdi va xuddi shu tushni tadbirkor, mulohazali, oqil vaziriga aytibdi. Dono vazir bu tushga shunday ta’bir beribdi:

— Shohim, bu qutlug‘ tush sizga muborak bo‘lsin. Sadaqalar bering, bandilarni zindondan ozod qiling. Tangri sizni barcha yor-u do‘stlaringizdan uzoqroq umr ko‘rish baxtiga muyassar qiladi. Podshoh vazirini zar to‘n bilan taqdirlab, unga ruxsat bergach, o‘g‘liga debdi: — O‘g‘lim, har ikkalasi ham bir fikrni aytdi.

— Ammo qay tarzda, — deb e’tiroz bildirdi shahzoda. — Gap xuddi mana shunda-da. Qarang, biri jazolandi, biri esa taqdirlandi, — deb ziyrak o‘g‘lining fikrini ma’qulladi podshoh. *(«Ibratli hikoyatlar» kitobidan)*

2-topshiriq. Shirin va muloyim so‘zlash, so‘z tanlash, o‘ylab gapirish haqida qanday maqol va hikmatli so‘zlarni, rivoyat va hikoyatlarni bilasiz? So‘zlab bering.

3-topshiriq. «So‘zdan so‘zning farqi bor, o‘ttiz ikki narxi bor», «Donoga ishora — nodonga kaltak» maqollarining mazmunini sharhlang.

Bilib oling. **Inson o‘zining ma’lum bir fikrini turli so‘zlar yoki ishoralar vositasida turlicha ifodalashi mumkin. Bunday o‘zgacha ifodani so‘zlovchining bilim saviyasi, hayotiy tajribasi, so‘z boyligi va nutq paytidagi muhit (sharoit) belgilaydi.**

5-topshiriq. Ayni bir fikrni turli shaklda ifodalab ko‘ring.

2-mashq. Hayotiy tajribangiz asosida «Tig‘ yarasi bitadi, lekin til yarasi bitmaydi» maqoli asosida matn tuzing.

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

3-mashq.

Uyga vazifa. **Mustaqillik** va **istiqlol**, **kelajak** va **istiqbol** so‘zlarini ishtirok ettirib, Ona-Vatanimizni sharaflovchi matn tuzing.

O‘TIBDO‘: _____

hasanboy.uz

Sana: “__” _____ 201__-yil. Sinflar: 8-“_____”. O‘qituvchi: _____

MAVZU: Adabiy nutq

DARSNING MAQSADI:

a) ta’limiy: o’quvchilarga adabiy nutq haqida ma’lumot berish;

b) tarbiyaviy: o‘quvchilarda dunyoda ro‘y berayotgan o‘zgarishlarga shaxsiy munosabat bildirish malakasini shakllantirish;

d) rivojlantiruvchi: o‘quvchilarni o‘z-o‘zini rivojlantirishga o‘rgatish, mavzu yuzasidan olgan bilimlarini hayotiy vaziyatlarga qo‘llay bilishiga erishish.

Mavzuga oid shakllantiriladigan kompetensiyalar:

a) tayanch kompetensiya(lar): TK1, TK2;

b) fanga oid kompetensiya(lar): FK1.

Dars turi: yangi tushuncha, bilimlarni shakllantiruvchi.

Dars uslubi: an’anaviy.

Dars jihozlari: darslik, tarixshunoslik atamalari lug‘ati, mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, slaydlar, bukletlar, tarqatma materiallar, ko‘rgazmali qurollar (audio, video, fotolavhalar, jadvallar) jamlanmasi.

DARS REJASI		
№	**Darsning tarkibiy qismi (bosqichlari)**	**Ajratiladigan vaqt (reglament)**
1	Tashkiliy qism	5 daqiqa
2	Ma’naviyat daqiqasi	
3	O‘tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4	Yangi mavzuni tushuntirish	25 daqiqa
5	Mustahkamlash	5 daqiqa
6	O‘quvchilarni baholash	5 daqiqa
7	Uyga vazifa berish	

DARSNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining darsga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

4-mashq. Ilmiy matnni o‘qing va tushunganlaringizni so‘zlab bering. Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aralashuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va og‘zaki nutq jarayonida o‘z ijtimoiy vazifasini bajaradi. Nutqning adabiy va shevalarga xos ko‘rinishlari bor.

Adabiy nutq so‘z san’atkorlari — yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat’iy me’yorlarga ega bo‘lgan nutq ko‘rinishidir. Adabiy nutqda har bir so‘z va qo‘shimchaning talaffuzi, imlosi, qo‘llanilishi, ma’nolari aniq me’yorlar bilan chegaralangan. Bu me’yorlarni buzish qo‘pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy

hasanboy.uz

yozishmalar, hujjatlar, o‘qitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq me’yorlarini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o‘z ona tiliga nisbatan hurmatsizlik belgisidir. Mana shu sababdan, umumta’lim maktablarida «Ona tili» o‘quv fanlaridan biri sanaladi.

Zero, bu fan adabiy nutq me’yorlarini o‘rgatadi, sizda undan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashtirilgan, bir qator o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan
ko‘rinishlari — ***uslublari*** mavjud.

Bular quyidagilar: 1) so‘zlashuv uslubi; 2) publitsistik uslub; 3) badiiy uslub; 4) ilmiy uslub; 5) rasmiy-idoraviy uslub.

So‘zlashuv uslubi kishilarning oilada, ko‘cha-ko‘yda fikr almashinuvi jarayonida qo‘llaniladigan nutq uslubidir. So‘zlashuv uslubi, ko‘pincha dialog shaklida bo‘ladi.

Publitsistik uslub axborot berishga, davrning ijtimoiy-siyosiy masalalarini aks ettirishga xoslangan ommaviy axborot vositalari (radio-televideniye, gazeta-jurnallar) uslubidir.

Badiiy uslub badiiy adabiyot, ya’ni badiiy asarlarga xos bo‘lib, unda badiiylik, ifodaviylik, ta’sirchanlik kuchlidir.

Ilmiy uslubga mantiqlilik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo‘llanilishi xos bo‘lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yozilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub o‘ziga xos nutq uslubidir. Barcha qonunlar, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari, turli hujjatlar, ish qog‘ozlari, idoralararo yozishmalar va shu kabilar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo‘ladi. Bu uslubda *qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi* kabi qoliplashgan so‘zlar va so‘z birikmalari keng qo‘llaniladi

Mustahkamlash: Darsning ushbu qismida o‘quvchilar dars yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Adabiy nutq me’yorlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Adabiy nutqning uslublari deganda nimani tushunasiz?

O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar darsdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Darsda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.

6-mashq.

Uyga vazifa. Yozma manbalardan ilmiy va rasmiy-idoraviy uslubdagi matnlarga ikkitadan misol (parcha) topib yozing.

O‘TIBDO‘: _____

hasanboy.uz

Ushbu konspektning ***to'liq va fondagi yozuvlarsiz*** variantini olish uchun
+998946281992 telegram raqamiga yoki
@mahmudov24 telegram adresiga xabar yozing

Narxi 20 000 so'm

To'lov FAQAT **click, payme** yoki **paynet*** orqali
BOG'LANISH FAQAT TELEGRAM ORQALI! Telefon qilinganda yoki sms yuborilganda javob bermaslik ehtimoli yuqori

Qolgan sinf namunalari va boshqa hujjatlar bilan telegram kanalimiz yoki web saytda tanishingiz mumkin.

Telegram kanal: @uzmaktab
Web sayt: www.hasanboy.uz

* paynet telefon raqamiga emas

hasanboy.uz